



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-iyul*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 62-224-65-09**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **6 123** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **69** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 054** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **7 281,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,6** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **274,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **66,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 007,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,3** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 425,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,8** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>7 281,9</b>	<b>107,6</b>
Urganch sh.	2 019,1	108,1
Xiva sh.	327,8	105,4
Bog'ot	385,2	107,0
Gurlan	606,4	110,0
Qo'shko'pir	326,0	110,0
Urganch	925,3	105,2
Hazorasp	742,1	106,7
Tuproqqal'a	162,9	109,0
Xonqa	458,6	105,7
Xiva	250,9	105,5
Shovot	541,9	110,7
Yangiariq	325,0	107,7
Yangibozor	210,7	110,0


2024- yilning yanvar-iyul oyida 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan viloyatning Shovot tumanida (**110,7** %) Yangibozor, Gurlan hamda Qo'shko'pir tumanlarida mos ravishda (**110,0** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **113,4 %** ni tashkil qildi.

## 2023- yilning iyulidan 2024- yilning iyuligacha qadar chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyul oyida o'sish sur'ati **107,6 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **27,7 %** bilan **2 019,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,2 %** bilan **162,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-iyul oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 007,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **10,3** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,2** % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **34,0** % ga kamaydi va **274,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,8** % ulushiga to'g'ri keldi.




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)





 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,8 %**), Yangiariq va Gurlan (**99,5 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**8,4 %**), Xiva tumani (**6,1 %**), Yangibozor tumani (**4,4 %**), Xiva shahri (**4,2 %**) va Hazorasp tumanida (**3,3 %**) kuzatildi.

**3,8 %**

**96,2 %**




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-iyul oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 636,6** ming so'mni (2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **105,6 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**13 136,3** ming so'm), Urganch (**4 313,9** ming so'm) va Gurlan (**3 845,2** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyul), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 425,6</b>	<b>111,8</b>
Urganch sh.	242,1	105,2
Xiva sh.	70,5	100,4
Bog'ot	165,2	103,3
Gurlan	209,0	112,7
Qo'shko'pir	135,5	122,9
Urganch		
Hazorasp	163,1	129,1
Tuproqqal'a	21,1	110,9
Xonqa	85,6	100,5
Xiva		
Shovot	240,5	122,2
Yangiariq	55,3	100,8
Yangibozor	37,8	101,0


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar-iyul)



Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024- yil yanvar-iyul)














Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 425,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **111,8 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **707,8** mlrd. so'mni (**120,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **717,8** mlrd so'mni tashkil etdi (**104,6 %**).













2024- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **707,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**310,1** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>310,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>43,8 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>66,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>9,3 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p><b>78,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>11,0 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>39,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p><b>21,4</b> mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>22,7</b> mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>12,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>22,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>35,5</b> mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>9,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>11,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>79,7</b> mlrd. so'm</p> <p>11,3 %</p>

2024- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **717,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **655,8** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **58,7** mlrd. so'mni, parrandalar – **3,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>351,7</b> mlrd. so'm</p>  <p>49,3 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>205,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>28,6 %</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>99,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>13,8 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>50,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>7,0 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>8,7</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>2,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>1,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Quyonglar</b></p> <p><b>0,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,02 %</p>	<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,01</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,002 %</p>
<p><b>Otlar</b></p> <p><b>0,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 441** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 439** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>235,5</b>	<b>109,7</b>
Urganch sh.	93,7	105,9
Xiva sh.	13,3	107,4
Bog'ot	16,3	108,1
Gurlan	5,4	110,9
Qo'shko'pir	3,4	108,8
Urganch	37,4	125,5
Hazorasp	8,2	109,0
Tuproqqal'a	4,0	104,9
Xonqa	16,4	107,2
Xiva	4,5	108,2
Shovot	16,4	107,8
Yangiariq	8,8	109,9
Yangibozor	7,6	113,3

2024- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **235,5** mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **9,7** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,6** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 054,4</b>	<b>89,9</b>
Urganch sh.	2 675,8	86,4
Xiva sh.	30,4	124,3
Bog'ot	53,5	124,3
Gurlan	17,1	241,4
Qo'shko'pir	9,2	123,4
Urganch	35,7	117,4
Hazorasp	103,9	123,5
Tuproqqal'a	9,8	121,1
Xonqa	55,5	124,8
Xiva	4,5	118,1
Shovot	21,2	122,0
Yangiariq	26,8	123,2
Yangibozor	11,0	124,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**2 675,8** mlrd. so'm), Hazorasp (**103,9** mlrd. so'm) va Xonqa (**55,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so‘m)



2024- yilning yanvar-iyul oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **3 054,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **89,9** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 633,0** mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – **164,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **421,5** mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – **23,5** %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 812,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **4,3** % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **3 610,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **119,8** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,7** % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 313** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **29** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 284** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Hazorasp tumani (**34,7** martaga) va Qo'shko'pir tumanida (**3,8** martaga) kuzatildi.

	<b>Jami mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 812,2</b>	<b>104,3</b>
Urganch sh.	2 034,7	113,5
Xiva sh.	109,4	129,3
Bog'ot	49,4	68,3
Gurlan	85,2	58,2
Qo'shko'pir	43,0	120,9
Urganch	710,1	85,3
Hazorasp	50,5	131,4
Tuproqqal'a	52,5	135,0
Xonqa	161,6	93,3
Xiva	237,1	138,7
Shovot	64,5	118,0
Yangiariq	139,6	90,8
Yangibozor	74,6	118,5